

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

Turkiya davlati Karabuk universiteti

Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy
nomidagi Adabiyot instituti

Al-Forobiy nomidagi Qozoq Milliy universiteti

**«TURKIY XALQLAR
ADABIYOTSHUNOSLIGI VA
MATNSHUNOSLIGINING
DOLZARB MASALALARI»**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferans
materiallari**

Toshkent – 2026

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrir:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori, akademik

Taqrizchilar:

Kemal Yavuz Ataman

ijtimoiy fanlar doktori, Turkiya

Dilnavoz Yusupova

filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Almaz Ulviy Binnatova (Ozarbayjon), Jabbor Eshonqulov (O'zbekiston), Islam Jemeney (Qozog'iston), Funda Toprak (Turkiya), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Olim Davlatov (O'zbekiston), Qanishbay Orazimbetov (Qoraqalpog'iston), Nafas Shodmonov (O'zbekiston), Bahodir Karimov (O'zbekiston), Uzoq Jo'raqulov (O'zbekiston), Maqsud Asadov (O'zbekiston), Zeboxon Qobilova (O'zbekiston), Dilshod G'ayipov (O'zbekiston), Darmonoy O'rayeva (O'zbekiston), Dilrabo Quvvatova (O'zbekiston), Qo'ldosh Pardayev (O'zbekiston), Shermuhammad Amonov (O'zbekiston), Gulrux Xudoyorova (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi ilmiy maktabining asoschisi, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov tavalludining 60 yilligi munosabati bilan o'tkazilayotgan "Turkiy xalqlar adabiyotshunosligi va matnshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-nazariy konferans materiallari jamlangan. To'plamda olim ilmiy-ijodiy faoliyatining o'zbek va qardosh xalqlar adabiyotshunosligida tutgan o'rni va ahamiyatiga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Shuningdek, turkiy xalqlar mumtoz adabiyoti tahlili, adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy va amaliy masalalari, navoiyshunoslik muammolari, istiqboli, zamonaviy adabiyotni o'rganish masalalarini yoritishga bag'ishlangan maqolalar ham kiritilgan.

Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tabriyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA INSON OBRAZI

Gulrux Xudoyorova,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Alisber Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti v.b.
e-mail: gulruxxudoyorova8@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Oripov lirikasining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etuvchi muhim jihatlardan biri sifatida rang va obangning nazariy hamda badiiy-estetik o'rni ilmiy asosda tadqiq etilgan. Shoir she'rlari misolida inson xarakteri va rubiy bolatini ochib berishda ranglar simbolikasining badiiy funksiyasi tabliil qilingan. Ijodkor ranglar antitezisi orqali xarakterlar zidligini badiiy uyg'unlikda ifodalab, ushbu hodisa maqolada ilmiy-nazariy aspektida atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy sintez, xarakter, tazod, lirik kechinma, badiiy tasvir, tazod-obraz, ijtimoiy kechinma.

Abstract

This article examines, on a scholarly basis, the theoretical as well as artistic and aesthetic role of color and tone as one of the key elements revealing the distinctive features of Oripov's lyric poetry. Through examples from the poet's works, the artistic function of color symbolism in portraying human character and psychological states is analyzed. By employing the antithesis of colors, the poet artistically harmonizes contrasting character traits, and this phenomenon is comprehensively explored in the article from a scientific and theoretical perspective.

Key words: artistic synthesis, character, contrast, lyrical experience, artistic image, contrast-image, social experience.

Kirish

“Adabiyot – so‘z san‘ati demakdir. Uning har qanday ifodaviy imkoniyati so‘z bilan chegaralanadi. Ayni damda so‘zning ifodaviy imkoniyati cheksiz ekanligini ta‘kidlamq zarur. Ijodkor so‘z vositasida ham o‘quvchiga musavvirlarday tasvir asosida ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shoir badiiy ifodada boshqa san‘at turlari imkoniyatiga murojaat etarkan, muayyan so‘z, jumlaning badiiy-tasviriy imkoniyatiga jiddiy ahamiyat qaratadi” [Quronov, 2015: 36]. Ayni shu fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, mohiyatan olib qaraganda, san‘atlarda uyg‘unlik mavjud. Bir san‘at turi ikkinchi bir san‘at turini to‘ldiradi. Bir san‘at zahirida boshqa bir san‘at elementlari yotadi. Ohang, rang, she‘r – bu uch san‘at o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy tilda “san‘atlararo sintez hodisasi” deya nomlanadi.

Asosiy qism

She‘riyat va ranglararo sintez masalasi adabiyotning nihoyatda qadim ildizlariga borib taqaladi. Bu haqda Sa‘dulla Quronov quyidagicha yozadi: “San‘atlararo sintez hodisasi uzoq tarixga ega. Uning ilk, yaqqol misoli Qadimgi Misr me‘morchiligining tasviriy san‘at va badiiy adabiyot bilan qilgan hamkorligida ko‘rinadi. Misr me‘morlarining devor va ustunlarga ishlangan bezaklarida tasviriy san‘at namunalari hamda qadimiy bitiklar yaxlit kompozitsiyaga birlashtirilgan. Umuman, sintezning bunday qadimiy ko‘rinishini barcha madaniyatlar tarixida (ibodatxonalar arxitekturasi misolida) uchratish mumkin” [Quronov, 2018: 132]. Sharqda ham san‘atlararo sintez masalasi chuqur tarixiy mazmunga ega. Jumladan, turkiy xalqlar o‘tmishi, madaniyati haqida xabar beruvchi toshbitiklardayoq adabiyot va rang o‘rtasidagi sintezni kuzatish mumkin. “Avesto”da yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurashning badiiy tasvirini berishda oq va qora rang antitezisidan foydalanish, Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asarida tasvirlarning ifodalanishida qizil, oq, qora kabi ranglarning ishlatilishi, mumtoz adabiyotda ranglar vositasida lirik qahramonning ruhiy holati, ijodkor badiiy maqsadi ochib berilishi adabiyot va ranglar sintezi masalasi nihoyatda chuqur



ildizlarga ega ekanligini ko'rsatib turibdi. Badiiy adabiyot va rang-tasvir o'rtasidagi sintez masalasini, eng avvalo, xalq og'zaki ijodidan foydalangan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Xalq nasri va lirikasida ranglarning bajaradigan funksiyasi, tashiydigan ma'nosi adabiyot va ranglar sintezi ramziy ma'nolarga ega ekanligini ham ko'rsatadi. Ertaklarda ezgulik himoyachisi bo'lmish shahzodalar, pahlavonlarning o'z maqsadlari tomon oq rangli otda yo'lga chiqishi, yovuz qahramonlarning qora kiyimda yoxud qora tulporlarda tasvirlanishi o'zida badiiy sintezning muhim qirralarini aks ettiradi. Lirik asarlardagi oq, qizil, qora, safsar, yashil, sariq kabi ranglarning ma'lum bir majoziy vazifada kelishi badiiy sintezda ramziylik funksiyalari mavjudligini ko'rsatadi. S.O'tanova ham ranglarning ramziy xarakteri xususida alohida to'xtaladi va quyidagilarni ta'kidlaydi: "Insoniyat tarixida ranglarning turli ramziy ma'nosi bo'lib, ular ma'lum jamiyat guruhlarining etnik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotidagi u yoki bu haqiqatlarni aks ettirgan. Odamlar rangni endi farqlay boshlaganlarida dastlab oq, qizil va qora rangni o'zaro ajratishgan" [O'tanova, 2007: 12].

Adabiyot va ranglar sintezining eng muhim tomoni esa adabiyotda har qanday davrdagi san'atlararo sintez hodisasi muallifning badiiy maqsadi, uning his-tuyg'ulari va lirik kechinmalarini ochib berishga xizmat qiladi, ma'lum bir badiiy-estetik vazifa bajaradi. Bu haqda folklorshunos Shomirza Turdimov ham alohida ta'kidlaydi: "Xalq qo'shiqlarida keluvchi rang bilan bog'liq ramziy obrazlar marosim folkloridagi ranglarga uyg'un ma'no tashisa-da, badiiy-estetik vazifa bajarishi bilan ajraladi. Ular boshqa ramzlar qatori lirik qahramon hayoti, o'y-kechinmalari, orzu-istaklarini ifodalab, qo'shiq badiiyatining yanada mukammal bo'lishini ta'min etadi" [Turdimov, 2020: 63].

Sa'dulla Quronov Sharqda adabiyot va rangtasvir sintezining mumtoz adabiyot bilan uzviy aloqada bo'lganligini qayd etadi: "Sharq mumtoz san'atlari taraqqiyotida ham sintez hodisasi muhim omil hisoblangan. To'g'rirog'i, mumtoz san'atlar rivoji bevosita sintez bilan bog'liq holda kechgan. Sharq mumtoz adabiyoti, miniatyurasi (kitob grafikasi) va musiqasi o'zaro uzviy bog'liq holda, she'riyatning nisbiy dominantligi asosida rivoj topgan" [Quronov, 2018: 43].

Mumtoz adabiyotda adabiy sintezning eng go'zal namunalari, shubhasiz, hazrat Navoiy ijodida kuzatiladi. Alisher Navoiy g'azallaridagi "Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin, Kim, esar ul dasht aro har yon qizil, sorig', yashil" kabi ifodaning o'ziyoq muallif kechinmalari ifodasida ranglarning be-takror tarzda badiiy vazifa bajarishini anglatadi.

"Fusuli arbaa" qasidalar majmuasida badiiy sintez masalasi" maqolasida Mir Alisher Navoiy misralarida ranglar badiiyati va ularning shoir kechinmalaridagi o'rni xususida so'z yuritiladi. Jumladan, "ariq suvini ko'rgil, gul yutganidan sariqligi kuchayadi, yo falak xazon bo'lgan shoxlar bargining aksini solganmi" mazmunidagi misralar tahlilida "shoirning tabiatni chin musavvirova ifoda etishga bo'lgan harakati, lirikaning rangtasvir san'ati imkoniyatlari bilan boyitilgani va bu ikki san'atning o'zaro sintezini ko'rishimiz mumkin" [Yusupova, 2013: 339], deya alohida qayd etiladi. Qolaversa, lirik kechinmalar ifodasini badiiy ifodalashda ranglarning o'rni jihatidan Alisher Navoiy dostonlari muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda "Sab'ai sayyor" dostonining yetakchiligi aniq seziladi. Bosh obraz ruhiyati, qolaversa, muallif badiiy niyati ochilishida qora rangdan boshlangan qasrlarning oq qasrga tomon o'zgarib borishi, har bir rangning ma'lum bir kayfiyatni aks ettirishi badiiy sintezning mukammal namunasi.

Adabiyotning rangtasvir uyg'unligida yuzaga chiqishiga ehtiyoj zamonaviy adabiyotda ham mavjud hodisadir. Bu davrga kelib, "shoir o'quvchining estetik ehtiyojiga monand she'rda tasviriylikka, his-tuyg'ularini vizual obrazlar asosida ulashishga intiladi" [Quronov, 2015: 37]. Zero, bu davrda ijodkor o'z shaxsiy kechinmalarini ma'lum qoliplarga sola olmaydi. Chinakam ijodkor o'z ijodi uchun maxsus qoliplar yaratadi. Bu qoliplar faqat uning ijodiga tegishli bo'lib, ayni shu qoliplardan uning kimligini anglab olmoq mumkin. Ayni shu jihatdan Abdulla Oripov she'riyatining o'z qoliplari mavjud. Bu ijodiy o'lcham yaratuvchisi esa, shubhasiz, shoirning o'zidir. Abdulla Oripov lirik kechinmalarini bayon etishda ranglarni badiiylik bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llaydi. Bu holat, ayniqsa, inson obraziga muallifning o'ziga xos yondashuvida kuzatiladi.



Natijalar va muhokama

Inson – tabiatning eng ulug‘ yaratig‘i. Shu bois u adabiyotning ham bosh mavzusidir. Zero, adabiyotshunos Dilmurod Quronov ta’kidlaganidek: “Borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning asosida inson obrazi turadi, chunki borliqning o‘zida inson shu xil mavqe egallaydi. Shunday ekan, borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning bu yo‘ldagi asosiy vositasi inson obrazi bo‘lishi tabiiy hamdir” [Quronov, 2018: 92]. Adabiyotning har qanday mavzusining tag mazmunida inson obrazi, uning tuyg‘ulari va hissiyotlari mujassam. Inson hamisha mukammal jamiyat yaratish va shunday jamiyatda yashashni orzu qilgan. Bunday orzu ijobatiga erishish yo‘lida insoniyat turli mashaqqat va ziddiyatlarga duch kelgan va kelmoqda.

Abdulla Oripov o‘z lirik kechinmalarini bayon qilishda, ranglardan foydalanish jarayonida, asosan, tazod san‘atiga murojaat qiladi. Nodira Afoqova Abdulla Oripov ijodida tazod san‘atining qo‘llanishi haqida fikr bildirar ekan, tazod-obrazlar masalasiga alohida to‘xtalib, quyidagicha fikr bildiradi: “...Abdulla Oripov asarlarining leytmotivini insonga munosabat, komil inson problemi belgilaydi. Bu esa shoirning juda ko‘p she‘rlarida ikki qarama-qarshi obraz tasviriga asos bo‘lgan. Biz bularni shartli ravishda tazod-obrazlar deb ataymiz. Bunday obrazlar ba‘zan she‘rning ayrim qismida o‘z ifodasini topsa, ba‘zan butun bir she‘rga asos bo‘ladi” [Afoqova, 1994: 56]. Abdulla Oripovning “Jeneva daftari”dan o‘rin olgan “Oqlar va Qoralar” deb nomlangan she‘ri aynan tazod-obrazlar asnosida vujudga kelgan. Shoir sarlavhaning o‘zidayoq metonimiyaga asoslangan holda, tazod obrazlarni vujudga keltiradi:

Birodar, gapni sen ko‘rgandan so‘ra,

Demagil, she‘ringda sharpa oralar.

Bir-birin yeb yotgan oqlardan ko‘ra,

Afzal-ku hamjihat o‘sha qoralar.

Azaldan qora tanlilarning o‘zaro hamjihatligi, mardligi, haqiqatparvarligi haqida juda ko‘p voqealar, fikrlar eshitganmiz. Kerak bo‘lsa, ularning bunday xususiyatlari oqlarga ibrat bo‘lgulik. Shoir ham ikki xil rangli insonlarni bir-biriga zid qo‘yar ekan, qoralarning bir-birini qo‘llab-quvvatlashi, har qanday to‘siqni ahillikda yengib o‘tishiga havas qiladi. Insoniyat o‘rtasidagi nizolar avj olgan bir zamonda qoralarning hamjihatligidan o‘rnak olsa arzishini poetik tarzda ifodalaydi. Zero, shoir uchun kim tarafda turmoq emas, ezgulik va haqiqat tarafda turmoq muhimroqdir. Bu haqda shoirning o‘zi “Ezgulik” she‘rida:

Mayizday qop-qora boshli habash ham,

Yaxshi ish qilganda yonida turgil, –deb yozadi.

Muallif o‘zining ijtimoiy kechinmalari bayonida “qora” rangdan badiiy maqsadini ochib berishda maqsadli foydalanadi. Aslida, qora rang ko‘pincha Abdulla Oripov ijodida salbiy kechinmalar ifodasini ochib berishga xizmat qiladi. Ammo yuqoridagi she‘rlarda shoir qora rangdan ijobiy ma‘noda foydalanadi. Turkiy xalqlar tarixida Xoqoniya shohlari qora deb atalishini (Bug‘ro Qora Xoqon deyilgani kabi) yoxud rus tilshunos olimi A.Kononov qora so‘zining ma‘nolarini tadqiq etib, ushbu so‘z bilan “katta”, “yirik”, “muhtasham”, “ulug‘”, “qudratli”, “kuchli”, “pokiza”, “musaffo”, “quruqlik”, “yer”, “zulmat ko‘ki”, “shimol” kabi mazmunlar ifodalanganligini ko‘plab misollar vositasida izohlab bergan”i [Haqqul, 2017: 3], Hazrat Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostonidagi ilk hikoyat oxirrog‘idan o‘rin olgan:

Qora rang elga toji torakdur -

Kim, qora rang ichradur, muborakdur, -

baytiga tayanib, qora rangning muborak va muqaddaslik xususiyatlari inobatga olinsa, shoir qora rang ifodalaydigan ma‘no imkoniyatlarini yaxshi anglagani va bundan o‘z ijtimoiy kechinmalarini ochib berishda mahorat bilan foydalangani kuzatiladi.

Abdulla Oripov she‘riyatida rang va ohang sintezi shoir lirik kechinmalarining yorqinroq



ifodalanishiga, kechinmalarning falsafiy yuki ortishiga, anglash va sezish olamining betakrorlashuviga yordam beradi. Ammo shoir ijodida shunday she'rlar ham mavjudki, unda ranglar nomi tilga olinmaydi. Ammo she'rni o'qir ekanmiz, ijodkor nazarda tutgan rangni topamiz, to'g'rirog'i, anglab etamiz. Muallif ranglarni ifodalovchi so'zlarni emas, ranglarni ifodalovchi ruhiyatni she'r ichiga singdiradi. Bunga "Qora yurak" she'rini misol qilib keltirish mumkin. To'g'ri, ijodkor sarlavhada "qora" so'zini qo'llaydi. Ammo she'r matnida bir marta ham bu rang nomidan foydalanmaydi. Aksincha, she'r vositasida ko'z oldimizda ranglarni gavdalaniradi:

*Horg'in bir yo'lovchi avji issiq dam,
O'lar bolga keldi, g'oyatda tashna.
Duch kelgan bir Inson dedi: – Bo'l, bardam,
Yana o'n qadam yur, buloq bor, oshna.*

Tasavvur qilaylik: quyosh ayovsiz qizdirmoqda. Ayni quyosh tig'ida tashnalikdan benihoya qattiq azob-uqubatga duch kelgan inson kelmoqda. Tashnalik, chanqoq uni yurishga ham qo'ymaydi. Qattiq horigan inson butunlay madordan qolgan. U hamma narsadan, hayotdan ham umidini uzgan bir pallada yo'lida uchragan kimsa o'n qadamdan keyin buloq borligini aytdi. Mana, sizga o'sha rang. Yashashdan deyarli umidini uzgan inson qarshisida yorug'lik paydo bo'ldi: o'n qadamdan keyin buloq bor! Ayni shu yorug'lik ko'z oldimizga qaysi rangni keltirdi. Albatta, Oq! Shoir kechinmaning boshqa rangini tasvirlashda davom etadi:

*Sen-chi, u obuga rahm etmay, hatto
O'zing sayd etarding, ko'zin yoshlarding.
Tashna yo'lovchilar ichmasin deb to,
O'sha buloqni ham ko'mib tashlarding.*

Ana endi, shubhasiz, o'quvchi ko'z o'ngida qora rang gavdalanadi. She'rning o'zidan rang topa olmoq uchun shoir she'rdagi lirik kechinmaga ayni o'sha rangni "qamab qo'ymog'i" shart. Shundagina bu kechinma va uning ichidagi qamalgan rangni o'quvchi ham ko'rib, ilg'ay oladi. Bunday she'rlar shoir ijodida talaygina. Abdulla Oripov ba'zan nafaqat she'rdagi kechinmalar, ba'zan hatto birgina sarlavhaning o'zigayoq ranglarni qamab qo'ya oladi. Shoirning "Everest va ummon" dan o'rin olgan "Folbinlar" she'ri bunga misol bo'la oladi. Zero, o'quvchi folbin so'zini eshitishi bilanoq uning ko'z o'ngida zulmat, shum xabar, yovuzlik – qora rang gavdalanadi. Ha, bu o'rinda o'quvchi adashmaydi. Sarlavhaning o'zidanoq o'quvchi shoir she'r ichiga qamab qo'ygan rang "qora" ekanligini anglaydi.

Matyoqub Qo'shjonov Abdulla Oripovning "qora rang dushmani" ekanligini ta'kidlaydi: "Ha, shoir "qora rang" dushmani, quyosh shu'lasini to'suvchilarga qarshi, birovlarining g'amini ko'rib quvonadiganlarga, o'zini xalq safida hisoblab, aslida, bu safni buzguvchilarga qarshi, xiyonatchilar, o'z imonini arzimagan matohga sotuvchilarga qarshi..." [Qo'shjonov, 2018: 262]. E'tibor qaratilsa, Matyoqub Qo'shjonov qora rang birikmasini qo'shtirnoq ichida qo'llaydi. Aslida, olim nazarda tutganidek, bu o'rinda rang – vosita. U shoirning minglab insoniy nuqsonlar va illatlariga qarshi lirik kechinmasini ifoda etish vositasidir. Ranglarning sarlavhaga olib chiqilishi, odatda, muallif kechinmalarining yanada bo'rtibroq ko'rinishiga imkon beradi. Ammo Oripov ijodida barcha she'rlardagi ranglarni ham sarlavhadan topib bo'lmaydi. Ya'ni yuqoridagi "Folbinlar" she'rda bo'lgani kabi mantiqdan kelib chiqib, shoirning she'r ichiga qamab qo'ygan rangini topish imkonsiz. Bunga A.Oripovning "Oqlovchi" she'ri misol bo'la oladi. Ushbu she'r boshdan oxirigacha keskin kinoya, achchiq kesatiq va hajv asosiga qurilgan. Oqlovchi deganda, ko'z o'ngimizda kimgadir yordam qo'lini cho'zuvchi, yaxshilik qiluvchi, haqiqatni himoya qiluvchi kishi gavdalanadi. Agar sarlavhadan kelib chiqib, she'rning ruhiyatini, uning zamiridagi rangni topmoqchi bo'lsak, yanglishamiz. Boisi endi mantiq biroz o'zgaradi:

*Oqlovchilik qiladi kotib,
Ko'pchilikdan qilmang, der gina.*



*Yomonlarni bo'ldik yo'qotib,
Qolganlari uch-to'rttagina.*

Dastlabki satrlarni o'qishimiz bilanoq sarlavha va mantiq o'rtasidagi to'qnashuvga guvoh bo'lamiz. Boisi she'rda endi biz sarlavhadan kelib chiqib tasavvur qilganimiz oq rang – poklik, ezgulik haqida so'z ketmayapti. She'rning keyingi bandlarini o'qish davomida shoir ifodalagan rang, aslida, qora ekanligini anglab etamiz. Oq rang azaldan deyarli barcha millat uchun ijobiy timsol yaratishga xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot va Qur'oni karimda ham (Bu o'rinda mumtoz adabiyot, asosan, Qur'onga tayanishini ham unutmashlik joiz) oq rang poklik va ezgulik ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. Husayn Voiz Koshifiyning "... oq rang kunduzning rangidir va dili ravshan jamoanikidir va ularning ko'ksi kudurat, kina va g'ubordan pokdir" [Koshifiy, 2019: 339], kabi fikrlaridan tasavvufda ham oq rangning mohiyati ezgulikka qaratilganini anglash mumkin.

Xulosa

Inson bilan bog'liq hodisalarda rang va adabiyot sintezining lirik kechinmani ifodalashdagi o'rni masalasida xulosa qilib aytish mumkinki, biz tahlil qilgan she'rlar Abdulla Oripovning turli mamlakatlarga safari natijasida yaratilgan bo'lib, ulardagi shoirning lirik kechinmalarini ifodalovchi ranglarning barchasi Inson obrazi bilan bog'langan holda namoyon bo'ladi. Qolaversa, shoir ijodida ranglarning kechinma ifodalashdagi vazifasi qadim o'tmish, mumtoz adabiyot an'analari bilan bog'liq tarzda ifoda etiladi.

Ijodkor inson vositasida rang va ohang sintezining ifodalanishida kasb va faoliyat-jarayon nomlaridan unumli foydalanib (Oqlovchi, Folbin kabi), lirik kechinmalar bayonida ranglardagi tazodni mohirona qo'llaydi, tazod-obrazlarga yuzlangan holda, o'z kechinmalarini bayon qilish bilan bir qatorda she'rlar sarlavhasida ham tazod-obrazlardan foydalanadi (Oqlar va Qoralar). Abdulla Oripov she'rlarida ranglar nomidan foydalanmagan holda, o'quvchiga kechinmalar yordamida ranglarni his qilish imkonini berishi (Qora yurak) yoki ranglarni asl mohiyatidan teskari holatda qo'llab., badiiy kashfiyot yaratadi (Oqlovchi). Abdulla Oripov ranglar bilan adabiyotni uyg'unlashtirgan holda, o'zining ijtimoiy lirik kechinmalarini yoritib beradi. Bu holat badiiy adabiyot va ranglar sintezida ijtimoiylikning badiiylikdan uzilmagan holda, yetakchi ahamiyat kasb etishiga muhim omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san'atlar. – Buxoro, 1994.
2. Haqqul I. Yana qora rang talqini haqida. <https://kh-davron.uz/>
3. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvatnomai Sultoniy. – T.: O'zbekiston, 2019.
4. O'tanova S. Alisher Navoiy g'azaliyotida rang simvolikasi. F.f.n.diss... – Toshkent: 2007.
5. Qo'shjonov M. Tanlangan asarlar. Iste'dodning tug'ilishi. – Toshkent: Sharq, 2018.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.
7. Quronov S. Oybek lirikasida badiiy sintezning ifodalanishi. – Toshkent: Sharq yulduzi, 2015-yil 1-son.
8. Quronov S. Zamonaviy o'zbek adabiyotida sintez muammosi. – Farg'ona, 2018.
10. Turdimov Sh. Xalq qo'shiqlarida ramz. – Toshkent: 2020.
11. Yo'ldoshev Q. Hikmat jilvalari. – Toshkent: Sharq, 2018.
12. Yusupova D., Quronov S. "Fusuli arbaa" qasidalar majmuasida badiiy sintez masalasi". – Toshkent: Akademnashr, 2013.

